

Date: 27<sup>th</sup> February-2025

## OILANING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Rajabova Madinaxon Qo'chqorali qizi

NamDU yuridik fakultet talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oilaning dastlab shakllanishi, oilaning jamiyat hayotidagi o'rnini, xalqaro e'tirof etilishi, uning Konstitutsiyaviy asoslari, oilani davlat va jamiyat himoyasida bo'lishi va unga doir qabul qilinga qonunchilik hujjatlari, nikoh tuzish asoslari, nikohlanuvchilarning huquqlari, ota-onaning farzand, farzandning ota-ona oldidagi majburiyatlari haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Oila, nikoh, oila kodeksi, ixtiyoriylik, axloq, tarbiya, farmon, qonunchilik hujjatlari, mahalla, jamiyat, qadriyatlar Konstitutsiya.

**Аннотация:** В данной статье описывается начальное становление семьи, роль семьи в жизни общества, ее конституционные основы, защита семьи государством и обществом и принимаемым законодательством, основы брака, права состоящих в браке, обязанности родителя перед ребенком, ребенка перед родителем.

**Ключевые слова:** семья, брак, семейный кодекс, воля, нравственность, воспитание, указ, законодательство, соседство, общество, ценности, конституция.

**Abstract:** This article describes the initial formation of the family, the role of the family in the life of society, its constitutional foundations, the protection of the family by the state and society and the adopted legislation, the basics of marriage, the rights of married women, the duties of a parent to a child, a child to a parent.

**Keywords:** family, marriage, family code, will, morality, upbringing, decree, legislation, neighborhood, society, values, constitution.

Oila- nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orning birligi, o'zaro yordami va ma'naviy ma'sulyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari- inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi.

Takidlanganidik, oila qurishdan asosiy maqsad turli jins vakillarining birgalikda hayot kechirishi va farzand ko'rishi hisoblanadi. Shuningdek oila haqida uning vujudga kelishi, oila qurishdan asosiy maqsad, uning tartib qoidalari, er-xotinlik munosabatlari, farzand tarbiyasi, axloqiy tarbiya va shular haqida Abdurauf Fitrat ham o'zining "Oila yoki boshqarish tartiblari" asarida bayon etgan. Unga ko'ra, odamlar dastlab tarqoq, yakka bo'lib yashashgan, vaqt o'tib, ular jamoa bo'lib yashash kerakligini tushunib yetishdi va ularning birinchi jamoalari "oila" ya'ni "ahli bayt" bo'lgan. Ahli bayt jamoalari asta-sekin



Date: 27<sup>th</sup> February-2025

rivojlanib qavm va qabila jamoasiga aylangan. Oila o'z ichki munosabatlariga asoslanadi. Oila ichki munosabatlari qonun hujjatlariga, milliy va axloqiy qadriyatlarga asoslanadi.

Har qanday jamiyatning mustahkamligi, rivoji oilaga bog'liq. Chunki jamiyatda bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarning dastlabki elementi oilada vujudga keladi va shakllanadi. Oiladagi kattalarning bir-biri, boshqalar bilan atrof-muhit, mol-mulkka bo'lgan munosabati yoshlarning shu masalalarga munosabatining shakllanishi uchun o'rnak bo'ladi. Oiladagi tarbiyaning boshqa tarbiyalardan farqi, afzalligi tarbiya u yerda faqat o'rgatish, o'qitish, ta'kidlash bilangina emas, barcha narsalarda katta yoshdagilarning kichik yoshdagilar uchun o'rnak ko'rsatilishi orqali olib boriladi. Bizga ma'lumki, odamlar qayerda qavm yoki qabila bo'lib yashasalar, tinchliklarini saqlash uchun va bir-birlarining huquqlarini muhofaza qilish uchun bir nizom (tartib) va qonun joriy etib, shu qonunlar asosida baxt v soadatga erishganlar. Aks holda o'rtalarida tartibsizlik ro'y bergan zahoti nizom-u qoida yo'qolib, darhol nobud bo'ladilar yoki e'tiborsiz va xor bo'ladilar. Har bir millatning soadati va izzati albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomiga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muntazam bo'ladi.

"Oila qancha mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo'ladi va rivojlanadi. Shuning uchun ham Birlashgan Millatlar Tashkilotning Bosh Assambleyasi 1994 yildan e'tiboran har yili 15 may kunini Xalqaro oila kuni sifatida nishonlashga qaror qilgani bejiz emas. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 16-moddasida shunday deyilgan: Balog'atga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati va diniga qarab biror bir cheklovlarsiz nikohdan o'tish va oila qurish huquqiga egadirlar. Ular nikohdan o'tayotganlarida ham, nikohda bo'lgan vaqtda ham va nikoh bekor qilinayotganda ham bir xil huquqlardan foydalanadilar. "Shuningdek, oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjati qabul qilindi. "Oila kodeksi – oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solib, oila a'zolari (ya'ni, er-xotinlar, ota-onalar, bolalar, shuningdek, farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinuvchilar va oilaning boshqa a'zolari) o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi va mustahkamlovchi qonun hujjati. Huquqning alohida tarmog'i hisoblangan oila huquqining maxsus manbaidir.

Shularning barchasi e'tiborga olinib, bizning xalqimizga xos oiladagi ijobiy mustahkamlash va rivojlantirishni ta'minlash uchun 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan birinchi Konstitutsiyamizda oila uchun maxsus XIV bob ajratildi. Bunday holatni- oilaga maxsus bob ajratilishini boshqa mamlakatlar Konstitutsiyada uchratmaymiz. U yerda oilaga ham davlat va jamiyatning muunosabati o'zgacha. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti 2011-yil dekabr oyida Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan yig'ilishdagi ma'ruzasida 2012-yilni "Mustahkam oila yili" deb e'lon qildi.

Oilaning Konstitutsiyaviy asoslarini aytib o'tadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining XIV bobida moddalar soni bittaga ko'paydi. 76-moddasida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi, u davlat va jamiyat tomonidan muhofaza etilishi belgilangan. Shuningdek, nikoh O'zbekiston xalqining



Date: 27<sup>th</sup> February-2025

an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Oila kodeksining 2-moddasida oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligi mustahkamlangan.

Konstitutsiyaning 77-moddasida ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqish, tarbiyalash, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxorlik qilishga majburiydir deb belgilangan. Qonun bo'yicha 18 yoshda voyaga yetgan hisoblanadi, ungacha ota-ona farzandlari uchun javobgardir hamda ularning barcha ta'minoti ular tomonidan amalga oshiriladi. Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalanishini ta'minlaydi. Otalik, onalik, majburiyatlarini bajarmaganlar qonun asosida ota onalik huquqidan mahrum etiladi. Voyaga yetmaganlarni huquqlarini himoya qilishda 2020- yil 25-fevraldagi "Bola huquqlari kafolatlarini to'g'risida "gi Qonun muhim ahamiyatga ega. Ota-onasiz, yetim bolalarga jamiyat va davlat g'amxorligini amalga oshirishda turli jamg'armalar ham karra rol o'ynaydi. Misol qilib, "Mehr-shavqat va salomatlik", "Sog'lom avlod uchun" jamg'armalari kiradi.

Konstitutsiyaning "Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi"- degan 78-moddasi qoidalari, farzandlarga teng huquqlilik va teng imkoniyat bo'lishini nazarda tutadi hamda har qanday holda onalik, otalik va bolalikning davlat tomonidan himoyaga olinishini ko'rsatuvchi yana bir muhim huquqiy asosdir. Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlanishi 79-moddada mustahkamlangan.. Eng oxirgisi 80-modda bo'lib, bunda voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar deb belgilangan. Nafaqat endi ota-onaga balki, farzandlarga ham majburiyat yuklatilyabdi. Oila munosabatlarning Konstitutsiyaviy asosda hal qilinishi, Konstitutsiyada unga alohida bob ajratilishi, bizda oilaga bo'lgan jiddiy munosabatning isbotidir.

Oilaviy munosabatlar Konstitutsiya asosida qabul qilinga Oila kodeksida ham mustahkamlab qo'yilgandir. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Oila kodeksi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 30-apreldagi qarori bilan tasdiqlanib, ushbu yilning 1-sentabrdan amalga kiritildi. Oila kodeksi mamlakatimizda „Oila yili“ deb e'lon qilingan yilda qabul qilindi. Kodeks 8 bo'lim, 30 bob, 238 moddadan iborat. Amaldagi Oila kodeksi bir qator oilaviy huquqiy munosabatlarni yangicha hal etgan. Milliy negizlarga asoslanganligi (quda-andachilik, qarindosh-urugchilik, bobo-buvilar va nabiralar o'rtasidagi munosabatlarning yangicha talqini), umuminsoniy qadriyatlar aks etganligi (nikoh shartnomasi institutining kiritilishi, nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi) kabi hollar".

Konstitutsiyada belgilanganidek, nikoh taraflarning ixtiyoriy roziligiga asoslanadi, nikohlanuvchilarning roziligi haqiqiy bo'lishi, biror tomonning roziligi har qanday tazyiq, qo'rqitish, kuch ishlatish orqali olinmasligi kerak. Bundan tashqari, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligi diniy tarafdin ham inobatga olingan hamda qonun bo'yicha nikoh yoshi ikki jins vakillari uchun ham 18 yosh etib belgilangan. Ayrim istisno holatlari mavjud



Date: 27<sup>th</sup> February-2025

bo'lganda nikoh tuzishga bir yil oldin ruxsat berilishi mumkin. Nikohlanuvchi shaxslar oilaviy munosabatlarda teng huquqqa ega bo'ladilar hamda shu kabi munosabatlar Oila kodeksida aniq belgialanib qo'yilgan. O'zbekiston tegishli davlat organlari tomonidan ro'yxatga olingan nikohgina qonuniy sanaladi. Bunday organ Adliya vazirligi tizimidagi fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlaridir (FHDYO). O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 230-moddasida Fuqarolik holati aktlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Yosh oilalarni qo'llav-quvvatlash, oilaviy munosabatlarni yaxshilash uchun davlatimiz tomonida ko'plab hujjatlar qabul qilinmoqda."O'zbekistonda yosh oilalarga ko'rsatilayotgan muruvvatlar, bola tug'ilishi va katta bo'lishi uchun suyunchi puli, nafaqalarning belgilanishi, onalik va bolalikning ijtimoiy muhofaza qilinayotganligi, ota yoki ona farzand oldida o'z burchini bajarmagan taqdirda moddiy, ma'naviy, hatto, jinoiy sanksiyalar orqali jazolanishi ushbu noyob maskanni mustahkamlash, u orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni keyingi avlodlar uchun saqlash vazifasini bardavom etishdan iboratdir."

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-sonli farmoni qabul qilindi va unga muvofiq bir qancha vazifalar belgilab berildi hamda O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida 2018-yil 29-iyunida Prezident qarori tasdiqlandi. "Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabr` kungi 820-sonli qaroriga ko'ra Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limlari huzurida Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlarini-tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullangan. Bundan asosiy ko'zlangan maqsad:

-zamonaviy oilaning namunali shaklini hamda «Oila — muqaddas», «Sog'lom oila — sog'lom jamiyat», «Oila — jamiyat va davlat himoyasida» va «Farovon oila — jamiyat ravnaqining asosi» kontseptual g'oyalarini nikohlanuvchilarning ongiga singdirib borish;

-nikohlanuvchi shaxslarni oilaviy-huquqiy munosabatlar, oilaviy hayot psixologiyasi, oila iqtisodi va byudjeti, reproduktiv salomatlik asoslari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash masalalari bo'yicha tizimli tayyorlash;

-oilalar mustahkamligini ta'minlash, oilaviy ajralishlarning oldini olish, nikohlanuvchi shaxslarda oilaviy qadriyatlarni hurmat qilish, oilalarda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni yaratish hamda ibratli ota-ona bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish hisoblangan.

Qabul qilingan qonunchilik hujjatlarining, islohotlarning barchasi jamiyatdagi oilaviy munosabatlarning mustahkamligiga erishish, sog'lom jamiyat barpo etishdir. Chunki, oila sog'lom ekan-jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan-mamlakat barqarordir. Ammo so'nggi paytlarda mamlakatimizda oilaviy nizolar, ajrim holatlar tez-tez uchrab turmoqda. Bunday holatlar jamiyat faravonligi, barqarorligiga albatta o'z tasirini ko'rsatmasdan



Date: 27<sup>th</sup>February-2025

qolmaydi. Shulardan kelib chiqib aytishim kerak qabul qilingan qonun va barcha normativ hujjatlar amalda o'z ifodasini topmog'i zarur va bu borada kerakli chora-tadbirlarni qo'llash lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi., "O'zbekiston", Toshkent-2023
2. Konstitutsiyaviy huquq., "Yuridik adabiyotlar publish", Toshkent-2023
3. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. 30.04.1998., <https://lex.uz>
4. "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori., 29.06.2018
5. "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari" to'g'risida Prezident farmoni., 19.02.2020
6. "O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida Prezident qarori" ., 19.02.2020
7. Oilaning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni haqida maqola., [hazratnavoi.uz](http://hazratnavoi.uz).
8. "Abdurauf Fitratning Oila yoki boshqarish tartiblari" ., Toshkent-2013
9. Oila mustahkamligi qonun nigohida mazvusunda maqola., [fyut.uz](http://fyut.uz).
10. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi., <https://ziyouz.com>
11. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. INSON HUQUQLARI XALQARO STANDARTLARI VA MILLIY GENDER MASALALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIIY TADQIQOTLAR JURNALI. 33-SON 20.10.2024. 166-170-betlar.
12. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Oila mustahkamligini ta'minlashda ota, ona, farzandlar tarbiyasi o'rni. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-7 ISSUE-10 (30- October) 44-50. VOLUME 7, ISSUE 10 (30- OCTOBER)
13. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Oila ma'naviyati-jamiyat taraqqiyoti omili. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. 7-jild 10-son Respublika ilmiy-uslubiy jurnali 13.10.2024. 106- 112
14. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Nikoh munosabatlarida milliylik va qonun normalarining amal qilishi. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 13-mart, 2024-yil 7-jild 3-son. 131-135
15. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. ХУКУҚИЙ СОҲАДА АЁЛ СИЙМОСИ. MODERN WORLD EDUCATION: NEW AGE PROBLEMS – NEW SOLUTIONS. International online conference. Date: 3 rdFebruary-2025. 40-43-betlar

